

Besh nafar mahkumning jazo o'tash tartibi yengillashtirildi



Besh nafar mahkumning jazo o'tash tartibi yengillashtirildi

Jazoni ijro etish muassasasida mehnatga halol munosabatda bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan hamda o'rnatilgan tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilgan besh nafar mahkumning jazoni o'tash shartlari yengillashtirildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Termiz shahar sudi raisi I.Shaymanovning raisligida jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tab turgan besh nafar mahkumni Jinoyat Kodeksining 113-moddasiga muvofiq yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish yuzasidan kiritilgan taqdimnomalar ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda odil sudlovga erishish maqsadida keng qamrovli islohotlar jadallik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Sud, ish hujjatlarini atroflicha o'rganib chiqib, insonparvarlik tamoyiliga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish departamenti 4-mintaqaviy muvofiq-lashtirish markazi 9-son tergov hibsonasi hisobida turib, mehnatga halol munosabatda bo'lib, o'rnatilgan tartib qoidalariga rioya qilgan,

o'zining hulqini ijobiy tomonga o'zgartirgan, jazoni o'tash davrida intizomiy jazoga tortilmagan, sodir etgan jinoyatining oqibatlarini to'la anglab yetib, bundan o'zlariga tegishli xulosa chiqarib, tuzalish yo'liga o'tgan, sud tomonidan tayinlangan jazoning haqiqatda 4/1 qismini o'tab chiqqan besh nafar mahkumlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 113-moddasiga asosan o'talmay qolgan jazo muddatini manzil-koloniya sifatida o'tkazildi.

Sudda raislik qiluvchi tomonidan mahkumlarga ularning huquq va majburiyatlari, jazoni o'tash davrida o'rnatilgan tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilishlari lozimligi, jazoni o'tash tartibini buzganlik uchun saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan intizomiy chora oqibatlari haqida tushuntirishlar berildi.

Bu bilan sud, sodir etgan jinoyatining oqibatlarini to'la anglab yetgan va axloqan tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarga yana bir imkon berilganligi bilan bir qatorda mahkumlarning jamiyatda o'z o'rnini topishda, oila a'zolari, farzandlari bilan birga, el-yurt taraqqiyoti uchun munosib xissa qo'shishlariga yana bir imkon yaratdi.